

O'QUVCHILARDA DIRIJORLIK VA MUSIQIY IDROKNI HOSIL QILISH SHAKLLARI

Zokirova Dilobar Rustamjon qizi

Namangan davlat pedagogika instituti Musiqa ta'limi va san'at yo'nalishi 1-bosqich
magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqola O'zbekiston xalq cholg'ulari orkestrining ijro faoliyatining rivojlanishi, repertuar tanlash va orkestr jamoalarining shakllanishiga oid masalalarni yoritadi. Maqolada, orkestr repertuarining muhimligi, asar tanlashda o'quvchilarning musiqiy imkoniyatlari va pedagogik yondashuvlar haqida so'z yuritiladi. Shuningdek, maqolada bolalar musiqa maktabi, akademik litsey va oliy o'quv yurtlarida orkestr tashkil etish va o'quvchilarni jamoaviy ijroga jalb etishning ahamiyati, shuningdek, repertuar tanlashda klassik va zamonaviy asarlarning roli ta'kidlanadi. Bunda, o'quv jarayonida orkestr va ko'p ovozli ansambllarni tayyorlash, ijro mahoratini oshirish uchun zarur metodologiya va texnik imkoniyatlarni hisobga olish muhimligi vurg'ulanadi. Maqola, orkestr jamoalari uchun repertuarni to'g'ri tanlash va o'quvchilarga chuqur musiqiy bilim berishning ahamiyatini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: Orkestr, partitura, cholg'u, repertuar, ansambl, kompozitor, ijro, jamoa, sahna.

O'zbek xalq cholg'ulari orkestri ijrochiligi musiqa san'atiga kirib kelganiga ko'p vaqt bo'limganiga qaramay, hozirgi kunda o'z tinglovchilariga ega.

Katta sahnalarda kontsert chiqishlari bilan nafaqat O'zbekistonda, balki, chet el va qardosh Respublikalarimizda ham ko'p ovozli orkestr ijrosi mahoratini namoyon qilib kelmoqda.

Har bir ijrochi jamoaning ijro mahorati, madaniyati, ma'nnaviyati, dunyoqarashi, saviyasini uning ko'zgusi sifatida repertuar dasturidan bilsa bo'ladi. Repertuar - ma'lum bir ijodiy guruhning (ishlab chiqaruvchi kabi) asarlari majmuasi. Har bir ishlab chiqarish korxonasida maxsulotlar biror maqsadga yo'naltirilgan bo'lib, sifati, foydalanishda qulaylik va iste'molchining talablarini hisobga olgan holda ishlab chiqariladi. Professional orkestrlar ham shunga o'xshash, jamoadagi har bir sozanda ma'lum bir o'quv dargohini bitirgan yoki bitirish arafasidagi shakllangan, jamoada ijro madaniyati talablariga javob bera oladigan sozanda bo'lishi lozim. Bunday jamoa qo'polroq qilib aytganda, «ishlab chiqarishga» tayyor holatda bo'lishi shart. Bunda guruh rahbari - dirijor, orkestrning ijodiy faoliyati yo'nalishini hisobga olgan tarzda, zamon talablaridan kelib chiqib, repertuar dasturini tanlaydi. Professional orkestrlardan farqli o'laroq, ularga kadrlar tayyorlab beruvchi o'quv orkestri jamoasining bir necha bosqichi mayjud. Bu o'quv jamoalarini uch bosqichga bo'lish mumkin:

- Bolalar musiqa maktabi orkestrlari.
- Akademik litsey va kollej o'quv orkestrlari.
- Oliy o'quv yurti o'quv orkestrlari.

Ushbu uch bosqichdagi jamoalarning vazifalari bir maqsadga qaratilgan. U ham bo'lsa, o'quv jarayonida orkestr va ko'p ovozli ansambl ijrochilarini tayyorlashdan iborat, har bir bosqichda o'quv muassasining DTS talabi darajasiga qarab, belgilangan reja asosida faoliyat

olib boriladi, ijro malakalari egallanadi. Lekin, ayrim hollarda bolalar musiqa maktablarida ob'ektiv va sub'ektiv sabablarga ko'ra, orkestr tashkil etish mushkul vazifa bo'lib qolmoqda. To'liq orkestr tarkibini tuza olish imkonni bo'lmanagan taqdirda, ko'p ovozli ansambllarni tashkil etish mumkinligini eslatib o'tmoqchimiz.

O'quvchilarni jamoaviy ijroga jalb qilish va tarbiyalash maqsadida imkoniyat darajasida bir turdag'i cholg'ular orkestri tashkil etsa ham bo'ladi.

Masalan: dutor, rubob, kamonli cholg'ular orkestrlari kabi. Keyingi yillarda, oliyoh o'qituvchilari tomonidan aynan, yuqorida aytib o'tilgan tarkibdagi orkestrlar uchun partituralar yaratilgan qo'llanmalar mavjud.

O'quv jarayonida bolalar uchun asar tanlanganda ularning qulog'iga yaqin kuy va qo'shiqlarni, qayta ishlangan ko'rinishdagi hamda, kompozitorlar tomonidan, aynan, o'quvchilar uchun yozilgan asarlarni tanlash tavsiya etiladi. Chunki, asar badiiy va mazmun jihatidan o'quvchining ruhiyatiga yaqin bo'lishi kerak. Musiqa o'quvchining qabul eta olish darajasiga javob bera olishi maqsadga muvofiq! Asar tanlanganda o'quvchining yoshi, umumiy dunyo doirasi, atrof-muxitdagi voqe'a va hodisalarни musiqa bilan bog'lay olish imkoniyatlari nazarda tutilishi lozim. O'quvchilar musiqa maktabi ansambl va orkestrlariga repertuar tuzganda musiqadagi oddiylik, ezgulik, quvnoq hayot va me'yor - muhabbatga singdirilgan asarlarga murojaat qilish kerak.

Yorqin va aniq kuy tizimiga ega bo'lган asarlar, o'quvchilarda hamjihatlikda ijro etish ko'nikmalarini o'rgatadi.

Bular o'z navbatida, musiqa maktab ko'p ovozli orkestr va ansambllarning asosiy vazifasini tashkil etadi. Musiqiy akademik litsey va kollejlarda orkestr fani to'liq tarkibda olib boriladi. Darsda birinchi bor orkestr tarkibida ijro etayotgan yosh ijrochilarni uchratamiz.

Ularning tayyorgarlik darajasi turlicha bo'ladi. Shu sababli o'quvchilarga tovush tartibi, yo'nalishlarini tushuntirib o'tish zarur. Bunda ular qaysi yo'nalishda ijro etayotganliklarini tushunganlaridagina, ijro etilayotgan asarga badiiy yondashishilar oson kechadi. Asarlarda kuy tizimi, kuy osti tizimi, jo'rnavozlik va pedal tovushlari yig'indisi mavjud.

Ularni tushunib, to'g'ri talqin qilinishi, o'qituvchi dirijorning maqsadli ravishda asar tanlay olishiga bog'liq. Litsey va kollej orkestrlari uchun asar tanlaganda o'quvchilarning texnik imkoniyatlarini hisobga olish, ijro mahorati yuqori bo'lган ijrochilarni nazarda tutib asar tanlanadi. Ishga bunday yondashuv, qolgan ijrochilarni ularga qarab intilishlariga imkoniyat yaratadi. To'g'ri tanlangan asar orkestr sozandalarining har tomonlama musiqiy ijodiy qobiliyatini o'sishga xizmat qilishi kerak.

Oliy o'quv yurtlarida orkestr sinfi o'zi oldiga qo'yilgan vazifani bajarish bilan bir qatorda, amaliyot darslari bilan hamjihatlikda o'tkaziladi.

Quvonarlisi shundaki, oxirgi yillar mobaynida amaliyot o'tayotgan o'quvchi-dirijorlarimiz, kafedra talabiga bo'ysungan holda, bittadan asar cholg'ulashtirib, shu asarni orkestr bilan ishlaydilar. Asarlarni cholg'ulashtirishda ularga shu fandan saboq beruvchi ustozlar rahbarlik qiladilar.

Dirijorlik, orkestr sinfi, amaliyot va cholg'ulashtirish fanlarini bir-biri bilan bog'liqligini ish natijasida talabalar tushunib etadilar. Orkestr repertuarini shu orqali boyitishga hissalarini qo'shadilar, dirijor sifatida tajriba ortiradilar. Talabalar orkestri bilan asar ustida ishlaganda, ularning diqqatini asarning badiiy tomonlarini to'g'ri talqin etishga qaratamiz.

Ulardan kompozitor ijodini bilish, asar janri haqida tushuncha, mazmuni, xarakteri, jumla yo'nalishlari, dinamik o'zigarishlar, avj, maqsadga erishishi va asar mohiyatini olib berish talab qilinadi. hamma ijro ko'nikmalarini bir asarda mujassam bo'lmasligi sababli, har xil xarakterdagi asarlarga murojaat etamiz.

Turli mazmun, o'lcham, tezlik, usul, shtrixdag'i asarlar ijrochining musiqiy xotirasini chiniqtiradi. Ijro salmog'i bir xil asarlarni doimiy tanlash, cholg'uchilarni orkestr sinfiga bo'lgan qiziqishini susaytiradi.

Ularning ijodiy va texnik rivojini to'xtatib qo'yadi.

Oddiydan murakkabga bo'lgan intilish, bilim berishda eng to'g'ri shior ekanligini unutmasligimiz kerak.

Repertuarga to'g'ri yondashuv natijasida orkestr guruhi tarkibiga javob beruvchi ma'lum asarlar yig'indisi to'planadi. Repertuar tanlashga bunday munosabat ijodkorni oldinga qarab intilishga, doimiy izlanishda bo'lishiga olib keladi. Shuning uchun ham, musiqani tubsiz dengizga qiyoslanadi. qancha chuqur sho'ng'imang uning tubi ko'rinxaydi.

So'ngi yillarda orkestr repertuaridan shlyager asarlar joy olayotganining shohidi bo'layapmiz. Bunday asarlarni yoshlarimiz sevib ijro etishmoqda. Yangi yo'nalishdagi asarlarni orkestr repertuarida bo'lishi, albatta, quvonarli. Shu bilan birga, shlyager asarlarda ko'pincha orkestr tovush yo'nalishlari to'laligicha namoyon etilmaydi. Tovush tizimi va usuldan iborat bo'ladi.

O'quv jarayonida bunday asarlar «maktab» darajasini bosolmaydi. Repertuar tuzishda avvalambor, klassik kompozitorlarning o'lmas durdonasi asarlariga murojaat etamiz. Klassika - bu vaqt sinovidan o'tgan asarlar.

Ularning har bir ijrosi, orkestr ijrolari tinglovchilarni tarbiyalashda oliy maktab bo'lib xizmat qiladi. Klassik kompozitorlar asarlarini tanlaganda cholg'ulashtirishga e'tibor qilish kerak. Ba'zida, sovuqqonlik, bilimning yetarli emasligi tufayli cholg'ulashtirilgan yoki moslashtirilgan asarlar xalq cholg'ulari orkestri ijrosida o'z ma'nosini yo'qotadi.

Orkestr sha'niga noloyiq bo'lgan e'tirozlar aytilishi mumkin. Bu bilan o'z oyog'imizga o'ziimiz «bolta» uramiz. Orkestr dasturida shunday asarlar borki go'yo, bu asarlar shu jamoa tarkibiga yozilgandek ijro etiladi. Cholg'ulashtirishni mohirona bajarilganligiga tan beramiz. Shuning uchun xalq cholg'u orkestrlariga moslashtirilgan yoki cholg'ulashtirilganda, ularinng imkoniyati va xususiyatidan yaxshi xabardor mutaxassislar qo'l urmog'i maqsadga muvofiq.

Klassik asarlar bilan bir qatorda kompozitorlarning orkestr uchun yozgan original asarlari repertuardan alohida joy oladi. Birgina T.Qurbanov ijodiga nazar solsak, u klassik ijod qolipida ishlagan o'zibek kompozitoridir. Uning orkestr uchun yozgan «Poema», «Uvertyura» lari, «Rapsodiya»si orkestr repertuaridan doimiy joy olgan. Ular o'ziining chuqur ma'nosi, klassik uslubda yozilish shakli, polifonik rivoji bilan boshqa asarlardan ajralib turadi. Asardagi ziddiyatlar, mohirona yechimi, kompozitorning yuqori tafakkur egasi ekanligidan dalolat beradi.

Bunday asarlarni ijro etishda, orkestr jamoasidan katta mahorat talab etiladi. O'quv orkestri repertuaridan yirik janrdagi asarlarning joy olishi, masalan: simfoniyaning qismlari, syuita, opera va baletlardan parchalar ijrochi o'quvchi-talabalar bilim doirasini kengaytirish bilan bir qatorda, ularni kontsert zallarida va teatr sahnalarida to'laqonli spektakl, kontsertlarni eshitishga va tomosha qilishga, asarlarga dirijorlik qilishga tayyorlaydi. O'quv orkestrlari qaysi

bosqichda bo'lishiga haramay, ularning talabiga javob beradigan repertuar dasturini tuzish lozim. O'quv jarayonning to'g'ri tashkil etilishida, asosiy javobgarlik, mas'uliyat, jamoa rahbari, dirijor zimmasida bo'ladi. Uning mutaxassislik malakasiga, ish natijalarini eshitib baho beriladi. Repertuar orqali o'quv tarbiya va ta'lim jarayonini to'g'ri tashkillashtirishga erishamiz. Repertuar orkestr sozandalarini ijodiy o'sishiga olib boradi. Ijro etilayotgan asarni to'g'ri talqin etish uchun, kompozitorning qanday o'y-fikr, his-tuyg'ularini ilgari surgan? Asar orqali nima demoqchi? Va uning yechimini bilish kerak. To'g'ri tanlangan asar, cholg'uchilardan bir-birlarini ruhan his etib, bir butun organizmga birlashishiga yordam beradi. Oxirgi yillarda davlatimizda san'atimiz fidoyilarini tashabbusi va ishtirokida ko'p ovozli ansambl va orkestrlar festivali o'tkazib kelinmoqda. Orkestr ijrochiligiga katta e'tibor qaratilganligi tufayli, O'zbekistonning barcha tumanlarida bunday jamoalar katta sahnada kuch sinashmoqda. Shu festival natijalari sarhsob qilinganda, muammolardan biri repertuar tanlash, dirijorning mahorati masalasi bo'lib turibdi.

Repertuarning vazifasi, jamoadagi ijrochilarda obrazli musiqiy fikrlashni, ularning ijodiy faoliyatini oshirish, eshituv qobiliyatlarini o'stirish va musiqiy xotiralarini shakllantirishdan iboratdir. Shuni unitmaslik lozimki - musiqiy repertuarni boyitish, yangilab borish va t'g'ri tanlash evaziga kutilgan natijalarga erishiladi. Bunda albatta dirijorning keng bilimi, tajribasi, orkestr jamoasi bilan ishlasj mahorati muhim o'rinn tutadi. Ushbu vasifalar sinf ishi jarayonida o'qituvch rahbarligida islanish, mustaqil tayyorgarlik, asarlarni puxta bilish orqali erishladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Toshmatov E. "Dirijorlik" o'quv qo'llanma. Toshkent 2008
2. J. J. Kazimov "Xor jamoalari bilan ishlashda dirijorlik maxorati" Uslubiy qo'llanma. T-2009
3. K.Azimov. «O'zbekiston dirijyorlari». T., 2001 yil.
4. Umarov Sh. Dirijorlik. Toshkent, 2018.
5. Azimov B. Dirijorlik amaliyoti. T. 2010
6. Abduraximova F. O'zbekistonda musiqa ijrochiligi Toshkent.; O'qituvchi. 1985 yil.
7. Karimova D. "Musiqa o'qitish texnologiyalari va loyihalash". darslik. T.2021.
8. Odilov A. O'zbek xalq cholg'ularida ijrochilik tarixi - T.:O'qituvchi. 1995 yil
9. Shokirkhanov, B. B., & Mahkamjanov, S. Q. O. (2021). The importance of the science of harmony in music practice. Asian Journal of Multidimensional Research, 10(10), 735-739.
10. Ibrohimov, A., & Maxkamjanov, S. (2023, February). OPERA SAN'ATINING VOKAL JANIRI. In Международная конференция академических наук (Vol. 2, No. 2, pp. 175-177).
11. Maxkamjanov, S., & Ibrohimov, A. (2023). NAY CHOLG'USI IJROCHILIK SAN'ATI TARIXI VA RIVOJLANISH JARAYONI. Инновационные исследования в науке, 2(2), 37-40.
12. Mukhamedovich, R. D. (2022). CULTURE AND ART IS THE EMBODIMENT OF NATIONAL VALUES. Conferencea, 97-102.

13. Gaziyev, J.J. (2021). STYLISTIC FEATURES OF THE WORK OF FRANZ JOSEPH HAYDN. In АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ СОВРЕМЕННОЙ НАУКИ И ОБРАЗОВАНИЯ (pp. 215-217).

14. JURAKHONOVICH, G.J., & KARIMBERDIEVICH, R. K. Renewing the System of the Country and the Role and Significance of Art and Culture in Today's New Level of Modernization in Our Life. JournalNX, 6(05), 7-9.